

qismaida arxar, cho'chqa, shuningdek bori, tulki va qashqirlar uchraydi. Tog' tizmasida qushlar turlari ko'p, ayniqsa kaklik va burgut juda ham ko'p uchraydi. Sudralib yuruvchilaridan ilonlarning har xil turlari bor, ayniqsa, tog' mintaqasining daryo vodiylarida hayvonlarning har xil turlariga boy.

Nurota tizma tog'lari markaziy qismining shimoliy yonbag'rida joylashgan, asosan tojik tilida so'zlashuvchi aholi istiqomat qiluvchi 11-ta qishloq manzilgohlari joylashgan hudud aholisi etnik jihatdan juda murakkab va nisbatan kam o'rganilgan. Shu sababli, mahalliy

aholining hududiy taqsimoti va etno-geografik xususiyatlari o'ziga jalb qiladi ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortdi. Tarixchilar A.N.Xoroshxin, M.S.Andreev, Y.G'.G'ulomov, A.T.Muxtarov, etnograflar B.X.Karmisheva, E.M.Peshchereva, V.G.Moshkova, A.I.Shevyakov, geograflar M.N.Nurnazarov, K.M.Hakimovlar tashrif buyurdilar. Bu joylarda yashovchi mahalliy aholi turli ekspeditsiyalarning asosiy obekti bo'lgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ular bugungi kungacha to'plangan ma'lumotlarilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T.: O'qituvchi n. 2002.
2. Mahmudi Forishy. Тоҷикони Фориш. Guliston-2000;
3. O'z.M.E. 2002.
4. Y.G'.Gulomov, Xorazmning sug'orilish tarixi, 1959., 58-b
5. Hakimov K.M. Forish tojiklari: hududiy joylashuvi va ayrim etnogeografik xususiyatlari. SamDU Ilmiy axborotnoma. 2020. 5-s.(123),151-b.
6. Mahmudi Forishy. Тоҷикони Фориш. Guliston-2000; 12-b.,
7. Omonullo Bo'riyev. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. T.: 2017y., 261-b
8. Betextin A.V. Mineralogiya kursi. -T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1969y.,76-b
9. Bochever F.M., Garmonov I.V., Lebedev A.B., SHestakov V.M. Osnovi gidrogeologicheskix raschetov. -M.: Izdatelstvo "Nedra", 1969.c-263
10. Goldberg V.M., Gazda S. Hidrogeologicheskoye osnovi oxrani podzemnix vod ot zagryazneniY. -M.: "Nedra", 1984. 262 s.
11. Zokirov O. Z., O'rta Osiyo geologiyasi. T.:1969y. 412-b
12. Ivanova M.F. Obshaya geologiy. -M.: "Visshaya shkola", 1974. 268-b.
13. Kats D.M. Kontrol rejima gruntovix vod na oroshayemix zemlyax. -M.: "Kolos",210-b.
14. Injenerno-geologicheskoye issledovaniya pri proyektirovani i stroitelstve gidroenergeticheskix soorujeniy.- M.:L.: Gosenergoizdat, 1954.357-b.
15. Kats D.M. Osnovi geologii i gidrogeologii. -M.: "Kolos", 1981.284-b

SURXON VOHASI AHOLISINING MIGRATSION JARAYONLARI. (1930-1950 yy.)

Eshmo'minov Ozodbek Ziyodulla o'g'li,
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda aholining etnodemografik jarayonlari hamda aholi migratsiya jarayonlarini ilmiy tadbiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ushbu maqolada sovet davrida aholini ko'chirish siyosati va uning janubiy vohalardagi

aholi demografik jarayonlarga ta'siri masalalari yoritilgan,

Tayanch so'zlar: Aholi migratsiyasi, yangi yerlar o'zlashtirilishi, aholi ijtimoiy turmush darajasi, paxtachilikni rivojlantirish, ko'chirilgan xo'jaliklar ijtimoiy ahvoli, aholi

demografiyasi.

Аннотация: На сегодняшний день научное применение этнодемографических процессов населения и процессов миграции населения считается одним из актуальных вопросов. В данной статье рассматривается политика переселения населения в советское время и ее влияние на демографические процессы населения южных оазисов.

Ключевые слова: миграция населения, освоение новых земель, социальный уровень жизни населения, развитие хлопководства, социальное положение переселенных хозяйств, демография населения.

Abstract: Today, the scientific application of ethno-demographic processes of the population and the processes of population migration is considered one of the pressing issues. This article examines the policy of population resettlement in Soviet times and its impact on the demographic processes of the population of the southern oases.

Key words: population migration, development of new lands, social standard of living of the population, development of cotton growing, social status of resettled farms, population demography.

Aholi migratsiya jarayonlari xususida ko'plab manbalarda turli fikrlar qayd qilib o'tilgan. Jumladan sovet davrida nashr etilgan adabiyotlarda migratsiya (lotincha, migration – ko'chish, ko'chib o'tish) [4:B.18] ya'ni mamlakatlar, mintaqalar yoki mamlakat bo'ylab, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tish jarayoni deya ta'riflab o'tilgan. Shuningdek, migratsiya termini xususida O'zbekiston milliy ensiklopediyasida: "Aholi migratsiyasi - aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chish. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan bo'lib, unga kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi aholining joylashishi, yerni xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, irqalar, tillar va xalqlarning paydo bo'lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog'liq". [5:B.487-493]

Shuningdek, migratsiya jarayonlari xususida yana bir manbada "Aholini ko'chirish kishilarning muayyan hududlardan boshqa hududlarga ko'chishini anglatadi. Qishloq xo'jaligidagi aholini ko'chirishlarga kishilarning aholi zichligi yuqori rayonlardan aholi siyrak, yoki aholi umuman yashamaydigan, bo'sh yer zaxiralari mavjud rayonlarga ko'chishi xosdir," – deya ta'riflab o'tiladi [1:B.69]. Aholi migratsiyasi xususida yana bir ma'lumotlarda esa "Aholini ko'chirish-mamlakat ichkarisida aholi zichligi yuqori rayonlardan o'zlashtirilmagan va aholi siyrak rayonlarga aholining ko'chirilishidir. Bu o'rinda aholini ko'chirishni bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga aholining ko'chishi bilan xarakterli emigratsiyalardan farqlanishi lozimligi ta'kidlab o'tiladi. Barcha keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash joizki, migratsiya bu aholining bir hududdan, ikkinchi hududga aholining ko'chish jarayonlari bo'lib hisoblanadi.

Migratsion jarayonlar qadimdan amalga oshirilgan, uni turli xil shart-sharoitlar va sabablar keltirib chiqargan. Aholini ko'chirishlarning asosiy sababi iqtisodiy sabab bo'lib, u ko'p hollarda hukumatning siyosiy maqsadlari bilan uyg'unlashib ketishi va bu omillarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib hisoblanadi [2:B.455].

Tadqiq etilayotgan sovet davridagi aholini ko'chirish, jumladan O'zbekistondagi aholini ko'chirish siyosatiga yuqoridagi ta'riflarni umumlashtiruvchi quyidagi ta'rifni berish mumkin. Aholini ko'chirish siyosati hukumat tomonidan tashkil etiladigan, uning strategiya maqsadlari bilan uyg'unlashib ketadigan, ixtiyoriylik (ayrim hollarda "ixtiyoriy-majburiy") tamoyili asosida amalga oshiriladigan, aholi zichligi yuqori hududlardan o'zlashtirilmagan yoki kam o'zlashtirilgan hududlarga, shuningdek, yangi sanoat rayonlariga ishchi kuchi bilan ta'minlash maqsadida aholining ko'chirish jarayonlari bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, aholi ko'proq istiqomad qiladigan hududlardagi demografik muammolarni bartaraf etish maqsadida, aholi zich yashaydigan hududlardan kam sonli aholi istiqomat qiladigan hududlarga ko'chirish yo'li bilan muammolarni bartaraf etish, ba'zi

holatlarda aholining ko'chmanchi qismini o'troklashtirish, kollektivlashtirish kabi masalalarni ham hal etish ustivor maqsadlardan hisoblangan. Migratsion jarayonlarda qo'yilgan bu vazifalar orasida mamlakat paxta mustaqilligini ta'minlash masalasi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Jumladan O'zbekiston SSR tashkil etilgandan so'ng unga tegishli bo'lgan viloyatlar hamda okruglarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush jarayonlari hamda kommunal ta'minlanish darajasida o'ziga xos muammolarni ilmiy tadqiq etish borasida bir qator tadqiqotlar ham amalga oshirilgan bo'lib ushbu ma'lumotlar Surxondaryo vohasi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari hamda ichki va tashqi migratsiya masalalari, shuningdek, ko'chirilgan aholi xo'jaliklarining demografik jarayonlarida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarni o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Paxta mustaqilligiga erishish masalasini hal etish borasida muhim ishlardan biri sifatida o'zlashtirilmagan xududlarda sug'orish ishlarini tashkil etish va aholini ko'chirish hisobiga yangi paxta maydonlarini barpo etish hamda bu orqali qo'shimcha hosilga erishish masalasiga katta e'tibor qaratildi. Aholini ko'chirish siyosati shu tariqa vujudga keladi va ishlab chiqarish usuli sifatida unga zamin yaratiladi.

Lekin paxta mustaqilligiga erishish uchun sun'iy sug'orish yo'li bilan o'zlashtirilmagan yerlarni o'zlashtirish, u yerlarga aholini ko'chirib keltirish va ularning mehnati xisobiga yangi paxta maydonlarini barpo qilish g'oyasi o'sha davrdagi shunga o'xshash g'oyalar kabi ulkan sarf-xarajatlar bilan bog'liqligi tufayli amalga oshirishda ko'plab muammolar ham ham yuzaga kelayotgan edi.

Shuningdek, birinchi jahon urushining bevosita oqibatlari, 1916 yilgi qo'zg'olon va shu davrlarda yuz bergan qurg'oqchilik, 1917 yilgi oktabr to'ntarishi va u bilan bog'liq keyingi siyosiy voqealar Turkiston hayotiga og'ir ta'sir ko'rsatdi, iqtisodiyotni izdan chiqardi, paxta maydonlari keskin qisqarib, paxtachilik tushkunlikka yuz tutdi. Ammo harbiy holatdan tinch hayotga qaytish, umumiy iqtisodiy vayrongarchilikning vaqt o'tishi bilan bartaraf etilishi, to'qimachilik sanoatini qaytadan tiklash bilan bog'liq paxtaga bo'lgan

ehtiyojning o'sishi natijasida paxtachilikni tiklash va rivojlantirish yana kun tartibiga qo'yildi [6:B.29].

Ma'lumki mamlakatimizda aholini ko'chiish siyosatini amalga oshirish davomida bir necha huquqiy xukumat qarorlari qabul qilinib bu hujjatlar asosida ichki va tashqi migratsiya jarayonlari amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan aholini ko'chirish ishlariga doir 1925 yil 10 apreldagi "SSSR Markaziy Ijroiya Qumitasi qoshida Butunittifoq Ko'chirish Qo'mitasini tashkil etish haqida"gi hamda SSSR Markaziy Ijroiya Qumitasi Prezidiumi qarori va 1927 yil 21 fevraldagi O'zSSR Markaziy Ijroiya Qumitasi va Xalq Komissarlari Sovetining "O'zbekiston SSRda aholini ko'chirishni respublika bo'ylab rejali o'tkazilishi haqida"gi qarorlari shular jumlasidandir.

Tarixiy tadqiqotlar hamda dala etnografik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, aholini ko'chirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yangi qo'riq yerlarni o'zlashtirish orqali paxta dalalarini kengaytirish va paxta mustaqilligini ta'minlash hamda mamlakatning barcha hududlarida dehqonchilik sohasini yanada rivojlantirishga erishish kabi maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan.

Aholi ijtimoiy demografik jarayonlari hamda migratsiya masalalarini ilmiy tadbiq etilgan tadqiqotlarda paxta mustaqilligi uchun O'zbekiston mehnatkashlarining kurashi ikki davrni-birinchisi, paxtachilikning tiklanishi (1917-1928-yillar), ikkinchisi, paxtachilikning yanada rivojlanish (1929-1932-yillar) davrlarini o'z ichiga oladi, deya ta'kidlangan. Shuningdek, ushbu asarda birinchi besh yillik (1929-1932 yillar) yakunida SSSR ning paxta mustaqilligiga erishuvi hamda aholining ijtimoiy turmush jarayonlari masalalari ko'rsatib o'tilgan.

Sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan ko'p sonli ommaviy tadbirlardan biri-aholini ko'chirish siyosati bo'lib, ushbu siyosat rejali va tashkiliy asosda, muhim tamoyillar va maqsadlarga yo'naltirilgan holda o'tkazilgan. Ko'chirish siyosatidan ko'zlangan asosiy maqsad-paxta mustaqilligini ta'minlash, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, demografik muammolarni hal qilish, "paxtachilik tajribasi" ni yoyish shu asosda mamlakat iqtisodiy salohiyatini ko'tarish kabilar bo'lgan [B.23].

Sovet hokimiyatining ko'chirish siyosati boshlangan 1925-yildanoq O'zbekiston aholisi ichki hamda tashqi migratsiya jarayonlarini boshidan kechirgan. Bu davrda dastlab Farg'ona viloyatidagi o'zbek oilalarini Tojikiston Respublikasining Qo'rg'ontepa, Vaxsh viloyatlariga yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida ko'chirish ishlari amalga oshirilgan. Yangi yerlarni o'zlashtirish hamda paxtachilikni rivojlantirish maqsadida 1925-1926, 1928-1929 yillarda Tojikiston Respublikasiga qariyb 15.826 xo'jalik ko'chirildi. 1929 yilda Tojikistonda 50 dan ortiq yangi qishloqlar vujudga kelib, ushbu qishloqlarning 36 tasi Qo'rg'ontepa viloyatida tashkil etilgan. 1930-yillar oxirlarida Tojikistonning Vaxsh vodiysini o'zlashtirish ishlariga kirishilishi natijasida, yana Farg'ona vodiysidagi o'zbek oilalaridan 8030 xo'jalik ko'chirilgan edi [8:B.124]. Aynan farg'onaliklarning ko'chirilishi nafaqat demografik muammoga bog'liq edi, qolaversa, ular "usta paxtakor" va dehqonchilikda katta tajribaga ega bo'lganliklari, shuningdek o'sha yillarda paxtachilikni rivojlantirishga e'tibor kuchayganligi holatlari bilan bog'liq edi. Farg'ona vodiysi aholisi Amerika paxta navini yetishtirishning yarim asrlik tajribasiga ega edi. Shuningdek, ular ingichka tolali Misr paxtasini yetishtirishdagi agrotexnika qoidalaridan ham yaxshigina xabardor bo'lib, butun O'zbekiston bo'ylab, shuningdek Tojikistonning Qo'rg'ontepa hamda Vaxsh vodiysida asosan Amerika va Misr paxtasi plantatsiyalari tashkil etishgan [9:B.34].

Tadqiqotlar davomida Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridagi aynan aholini ko'chirish siyosati ishtirokchilari bo'lgan vodiyliliklar tomonidan barpo etilgan, gullab-yashnab turgan bir qancha qishloqlarda bo'ldim. Mahalliy aholi tomonidan "farg'onachilar" deb nom olgan ko'chirib keltirilgan vodiyliliklar hamda ularning avlodlari bilan suhbat o'tkazildi. Ular bu yerga sovet hukumati tomonidan ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda "paxta ustoz", yoki "paxta ustasi", yoki, "tajribakorlar" sifatida ko'chirib keltirilganliklarini aytganlar.

Farg'ona vodiysi aholisi O'zbekistonning janubiy viloyatlariga dastlab 1920-1930-yillarda ko'chirilgan bo'lsa, shuningdek ikkinchi jahon

urushidan keyingi yillarda ayniqsa Surxon-Sherobod va Qarshi cho'llarini o'zlashtirish, Qashqadaryodagi yirik sanoat korxonalari (Muborak, Tallimarjon, Sho'rtan va boshqa)ni barpo etish yillarida ham ko'chib kelishgan [10:B.69]. Bu davrda Surxon vohasiga yangi yerlarni o'zlashtirish hamda dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish maqsadida respublikasning boshqa hududlardan aholini ko'chirib keltirish jara'eni jadal tarzda amalga oshirilayotgan edi.. 1926 yilda Farg'ona viloyati Chust qishlog'idan 30 xo'jalik, Oltiariq qishlog'idan esa 32 xo'jalik oilalari Surxon vohasidagi "Namuna" kolxoziga [11:B.] ko'chirib keltirilgan edi. 1930 yillarga kelib, yana 26 xo'jalik oilalari ham Surxondaryoga ko'chirib keltirildi. Ko'chib kelgan vodiylilik dehqonlar asta-sekinlik bilan "Qirqqiz" va "Namuna" uchastkasiga joylashtirilib, ular uchun moddiy ta'minot pullari ham ajratildi. Shu davrda Farg'onadan ko'chib kelgan Ubaydullaev Nazirjon boboning o'zining tarixiy xotiralarida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: Biz 1926-yilda Oltiariqdan Surxondaryo viloyati Namuna kolxoziga kelganimizda yashash uchun shart-sharoitlar juda achinarli ahvolda edi. Bizdan birinchi navbatda talab etiladigan narsa dehqonchilik ishlariga qattiq e'tibor qaratishdan iborat edi. Yerga ishlov berishda texnika yo'qligi sabab, katta-katta gektar maydonlarni ho'kiz qo'shilgan omoch hamda ketmon bilan ishlov berib paxtachilik ishlarini yo'lga qo'yish talab etilgan.

Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida 1926-1930 yillarda Termiz tumanidagi "Namuna" jamoa xo'jaligiga Farg'ona vodiysidan yana 24 nafar oila xo'jaliklari ko'chirib keltiriladi [12:B.21]. Ko'chib kelgan vodiylilik dehqonlar "Kokildorota" va "Namuna" uchastkasiga joylashtirilib, ular uchun 36 ming rubl pul mablag'i ajratildi va shundan 7 ming rubli qishloq xo'jaligi asbob-uskunalar uchun sarflandi. Shuningdek, ko'chirib keltirilgan aholi xo'jaliklariga kartoshka, guruch, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari hamda bank tomonidan ssuda puli ajratiladi [13:B.234].

Shuningdek, voha aholisi ham paxta yetishtirish maqsadida hududdanhududga ko'chirilgan. Arxiv xujjatlarida tog'dan pasttekislik hududlariga ko'chib kelganlar uchun ham "Qishloq xo'jalik banki" tomonidan

pul mablag'i berilganligi qayd etilgan [14:B.34]. U kishining ta'kidlashicha, dehqonlar tayёр bo'lgan mahsulotni Termiz paxta tozalash zavodiga olib borib topshirganlar, mehnat haqi evaziga esa pul, sovun va chit mato kabilar berilgan [15].

Ko'chirib keltirilganlar uchun doimo ham qulay maishiy va xo'jalik yuritishning shart-sharoitlari yaratilgan deb hisoblash tarix haqiqatidan yiroqdir. Ularning katta qismi kapa, chayla, yerto'la, ishchilar yotoqxonasi, barak, omborxonalarda, kolxoz klublarida ma'lum muddat yillar davomida yashashga majbur bo'lganlar. Ko'chirilganlarni uy-joy bilan ta'minlash, ijtimoiy va maorif muassasalari: kutubxona, klub, maktab, yasli, magazin, ko'chma kinolar tashkil etish, kolxozchilarga texnika, mehnat qurollari yetkazib berish doimo muammoligicha qolavergan [16:B.88]. Eng achinarli tomoni shunda ediki, ko'chirib

keltirilgan aholi xo'jaliklari ijtimoiy turmush tarzi juda achinarli ahvolda bo'lgan. Ko'chirib keltirilgan oila xo'jaliklariga viloyat okrugi rahbarlari tomonidan uy-joy bilan ta'minlash ishlari juda qoniqarsiz ahvolda bo'lgan. Aholining aksariyat qismi yerto'la uylar hamda chordevor uylarda yashashga majbur bo'lishgan [1:B.100].

Ko'chirilgan aholi xo'jaliklarining yangi joylarda ijtimoiy turmush jarayonida duch kelgan muammolarining barchasini ta'riflab o'tish juda mushkul. Ammo mana shunday og'ir ijtimoiy turmush sharoitlariga qaramay ko'chirilgan aholi xo'jaliklari vohada paxtachilik hamda tomorqa xo'jaligining rivojlanishida o'ziga xos munosib tarzda mehnat qilishgan. Sharaflı mehnatlar natijasida tumanning qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotining rivojlanishida munosib hissasini qo'shib kelishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolshaya sovetskaya ensiklopediya T.45. Moskva: OGIZ RSFSR, 1940. S 69.
2. Bolshaya sovetskaya ensiklopediya T. 32. vtoroye izdaniye-Moskva Bolshaya sovetskaya ensiklopediya. –S. 455.
3. To'xtayev A. Ulug' Vatan urushigacha bo'lgan yillarda Surxondarëda elektrlashtirish // Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilarining XXV ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Termiz, 1993. – B. 100
4. Mullajanov I.R. O'zbekiston aholisi. – T.: O'zbekiston, 1974. 18-bet
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. -Toshkent: 2000, -B. 487- 493.
6. Xasanov M.K. Deyatelnost V.I.Lenina i Sovetskogo pravitelstva po sotsialisticheskomu preobrazovaniyu i vosstanovleniyu xlopkovodstva v period grazhdanskoy voyni i perviy godi NEPa v Sredney Azii (1918-1924 gg.): Avtoref. dis kand. ist. nauk. - Tashkent, 1985. -S.29
7. Xolmo'minov. X.E.O'zbekiston janubiy viloyatlarida tarixiy-demografik jarayonlar (sovetlar hukmronligi davrida migratsiya masalalari) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011. -b 23.
8. Xayitov SH.A. Yo'ldoshev A.B. Sovet xokimiyati yillarida aholni ko'chirish siyosati va Tojikistonga ko'chirilgan o'zbeklar tarixi. QarDU xabarları. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Maxsus son Qarshi-2020. B 124.
9. Surxondaryo viloyati DA, 18 jamg'arma, 1-ro'yxat, 133-ish, 34-varaq.
10. Qashqadaryo viloyati Davlat Arxivi. 133-jamg'arma, 1-ro'yxat. 2095-ish, 69-varaq
11. Norboy Eshmirzayev xotiralaridan Termiz tumani Namuna SFU “Kokildor ota” mahallasi 64 yosh
12. O'zbekiston Milliy Arxivi. I-36, 1-ro'yhat, 3508 –ish, 21-varaq
13. O'zbekiston Milliy Arxivi R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3272-ish,234-varaq
14. O'zbekiston Milliy Arxivi, R-837-jamg'arma, 3-ro'yxat, 505-ish, 34-varaq.
15. Ubaydullayev Nazirjon bobo 1941 yilda tug'ilgan Termiz tumani “Kokildorota” mahallasi. 2021 yil.
16. O'zbekiston milliy Arxivi; 90-jamg'arma, 8- ro'yxat, 2004 ish, 88-varaq